


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2024- yil 1- aprel holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 36 609 tani tashkil qildi. (2023- yil 1- aprelga nisbatan 105,9 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2024- yil 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 37,5 %), sanoat sohasida (22,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,3 %) va qurilishda (7,2 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

|                              | <b>2023- yil<br/>yanvar-mart</b> | <b>2024- yil<br/>yanvar-mart</b> |
|------------------------------|----------------------------------|----------------------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>1 272</b>                     | <b>1 054</b>                     |
| Namangan shahar              | 344                              | 328                              |
| Mingbuloq                    | 109                              | 55                               |
| Kosonsoy                     | 57                               | 60                               |
| Namangan                     | 54                               | 41                               |
| Norin                        | 70                               | 72                               |
| Pop                          | 100                              | 86                               |
| To'raqo'rg'on                | 78                               | 51                               |
| Uychi                        | 94                               | 52                               |
| Uchqo'rg'on                  | 109                              | 86                               |
| Chortoq                      | 96                               | 76                               |
| Chust                        | 73                               | 82                               |
| Yangiqo'rg'on                | 88                               | 65                               |

2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 328 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 86 ta, Pop tumani – 86 ta, Chust tumani – 82 ta, Chortoq tumanida – 76 ta, Norin, tumanida – 72 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 65 ta, Mingbuloq tumanida – 55 ta, Uychi tumani – 52 ta, To'raqo'rg'on, tumanida – 51 ta, bu ko'rsatkich o'rtacha darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida 41 tani tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 31,1 %, Uchqurg'on tumanida – 8,2 %, Pop tumanida -8,2 %, Chust tumanida – 7,8 % Chortoq tumanida -7,2 %, Norin tumanida – 6,8 %, Yangiqo'rg'on tumanida -6,2 %, Kosonsoy tumanida -5,7 %, Mingbuloq tumanida – 5,2 % va tashkil etdi.

2024- yil yanvar- mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 64,4 % (2023- yil yanvar- mart oylarida 64,5 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 58,8 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 45,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 118,5 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 63,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(2024- yil yanvar-mart oylari holatiga, % da)



### Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2024- yil yanvar-mart)

| Iqtisodiy faoliyat turlari               | Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. soʻm | Jami hajmga nisbatan ulushi, % da |
|--|---|-----------------------------------|
| Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 2 800,6   | 95,1                              |
| Sanoat                                   | 2 292,0   | 43,9                              |
| Qurilish                                 | 1 369,9   | 93,7                              |
| Chakana savdo                            | 3 991,6   | 93,8                              |
| Yuk tashish, mln. tonna                  | 6,9   | 92,2                              |
| Yoʻlovchi tashish, mln. kishi            | 102,2   | 97,6                              |

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)

|                              | Sanoat      | Qurilish    | Xizmatlar   | Investitsiyalar |
|------------------------------|-------------|-------------|-------------|-----------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>43,9</b> | <b>93,7</b> | <b>67,0</b> | <b>73,0</b>     |
| Namangan shahar              | 59,5        | 95,6        | 44,6        | 81,7            |
| Mingbuloq                    | 31,3        | 89,6        | 86,1        | 12,5            |
| Kosonsoy                     | 43,7        | 97,2        | 84,9        | 69,4            |
| Namangan tuman               | 63,9        | 86,2        | 84,2        | 72,4            |
| Norin                        | 99,8        | 93,7        | 85,0        | 74,7            |
| Pop                          | 76,7        | 95,9        | 72,0        | 96,8            |
| To'raqo'rg'on                | 4,9         | 97,6        | 75,6        | 53,5            |
| Uychi                        | 57,9        | 97,8        | 85,1        | 94,8            |
| Uchqo'rg'on                  | 25,4        | 78,9        | 79,6        | 89,0            |
| Chortoq                      | 100,0       | 92,3        | 79,8        | 86,3            |
| Chust                        | 48,9        | 97,4        | 79,7        | 76,6            |
| Yangiqo'rg'on                | 100,0       | 96,6        | 86,8        | 96,9            |

Hududlar bo'yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Norin (99,8 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Uychi t, (97,8 %) To'raqo'rg'on t, (97,6 %) Chust t t, , (97,4 %) Kosonsoy t, (97,2) tumanlari tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo'rg'on (86,8 %), Mingbuloq (86,1 %), Uychi (85,1 %), Norin (85,0 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo'rg'on (96,9 %), Pop (96,8 %) Uychi (94,8 %), Uchqo'rg'on (89,0 %), Chortoq (86,3 %), Namangan sh (81,7 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.